

**ZAMONAVIY O'ZBEK MILLIY LIBOSLARINI LOYIHALASH VA
TIKISH TEKNOLOGIYASINI O'QITISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

*Buxoro Davlat Pedagogika Instituti
Nuriddinova Nigina Otabek qizi
Teknologik Ta'lim yo'nalishi*

Annotatsiya: Quyidagi ilmiy maqolada zamonaviy miliy liboslarimizni yaratuvchi dizaynerlarimiz, konstruktorlar, yuqori sifatli tikuv uskunalarini joriy etish, tikuv jarayonlarini avtomatlashtirish, tikish texnologiyasini o'qitish metodikasini yanada rivojlantirish, yanada zamonaviy milliy liboslarimizni loyihalashda yaratishda va ularning barchasi tikuv ishlab chiqarishni takomillashtirish xususidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: kiyim-kechak, aholi, model, diain, mahsulot, shakl, madaniyat, samaradorlik, xizmat, korxona.

Аннотация: В данной научной статье содержатся сведения о дизайнерах, конструкторах, создающих наши современные национальные костюмы, внедрении качественного швейного оборудования, автоматизации швейных процессов, дальнейшем развитии методики преподавания технологии шитья, проектировании и создании наших современных национальных костюмов, и все они связаны с совершенствованием швейного производства.

Abstract: The following scientific article contains information about the designers, constructors who create our modern national costumes, the introduction of high-quality sewing equipment, the teaching methodology of sewing technology, the design and creation of our modern national costumes, and all of them are related to the improvement of sewing production. given

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, unutilayozgan qadimgi milliy an'analarimizni, qadriyatlarimizni tiklashga imkon tug'ildi. O'zbek milliy kiyimlari xalqimiz tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lib, u moddiy-



ma'naviy yodgorliklar ichida xalqlarning milliy o'ziga xosligini aks ettirib, etnik belgilari bilan ajralib turadi. Milliy kiyimlarda, biron-bir el-elat tarixiga borib taqaladigan an'analar, ijtimoiy munosabatlar, ma'rifiy, din va estetik shakllarning ayrim unsurlari ifodalanadi, unda xalqimizning didi, go'zallik to'g'risidagi

ideallari, xo‘jalik yuritishning o‘ziga xos jihatlari hamda oilaviy turmushning ba‘zi tomonlari ham ko‘zga yaqqol tashlanadi.

O‘zbek xalqining kiyimlari juda xilma-xil, rang-barang va jozibalidir. Ular - erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlaridan iborat bo‘lib, inson umrining fasllariga qarab ham ajratilgan: yoshlar, o‘rtta yoshlilar, keksalar uchun. Shuningdek, hududlar bo‘yicha ham o‘ziga xoslikni tashkil qiladi. Kiyimlarda insonning ijtimoiy mavqeい, u yashagan joy va zamon, hayotidagi quvonchli yoxud qayg‘uli voqealar ham namoyon bo‘ladi. Bu masala tarixini o‘rganish ko‘plab yo‘qolib ketgan va ketayotgan bebaho yodgorliklarimizning xilma-xilligini qayta tiklash va xalqimizning nodir merosini dunyoga tanitishga xizmat qiladi.

Xalqlarning milliy liboslari badiiy va estetik an‘analari, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan etnik qadriyatlar, g‘oyalari, xalq ijodiyoti ijodiy manba sifatida, talabalarning rivojlanish transformatsiyasida, qidiruv va tadqiqoti faoliyati davomida, milliy kostyumlar tahlili asosida kelajakdagi o‘qituvchi-dizaynerlarni tayyorlashda foydalanishining ahamiyati beqiyosligini belgilaydi. Talabalarda tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda xalq milliy kostyuming ta’lim va tarbiya salohiyatidan foydalanish, etnik-madaniy bilimlarni berish, ijodkor talabaning amaliy darslarni bajarishdagi “tahlil qilish” qismini amalga oshirishda badiiy va pedagogika muammolami ijodiy hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun zarur, shart bo‘lib, bu uning pedagogik va dizayn faoliyatiga kasbiy tayyorgarligini rivijlantiradi. Etnografik bilimlar kelajakdagi o‘qituvchi-dizaynerlarga liboslarning etnik guruhlari kostyumda o‘ziga xos va umumiylikni aniqlash ko‘nikmalarini egallahga yordam beradi va bu uning ijodida eklektikaga yo‘l qo‘ymaslikni o‘rgatadi.

Kelajakdagi o‘qituvchi-dizaynerlarning tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirish darajasi to‘g‘risida kerakli ma‘lumotlarni olish uchun intervyu usulini tanlash ham mumkin. Talabalar bilan suhbat o‘tkazish uchun eksperiment bosqichida so‘rovnama ishlab chiqiladi. Siz qaysi millat milliy liboslari bo‘yicha tadqiqot olib bormoqchisiz? Izlanishlar davomida qanday natijalarga erishdingiz?»“Tadqiqotni o‘tkazish jarayonida qiyinchiliklarga duch keldingizmi? Bizning oliv o‘quv yurtimizda ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etasizmi?

Qaysi kostyumlarni modellashtirish sizni qiziqtiradi? Milliy kostyum, uning xususiyatlari bilan tanishmisiz? Milliy kostumi bo‘yicha tadqiqot ishini yozishni xohlaysizmi?»“Siz tadqiqot jarayoni dizayn bo‘yicha mutaxassisni tayyorlash uchun muhim deb hisoblaysizmi?“-kabi savollar so‘rovnama shakllantirish mumkin.

Tadqiqotni o‘tkazish jarayonida talabalar bilan suhbat o‘tkazish uchun shakllantirilgan savollar, mavzu asosini ochib beradigan shaklda ishlab chiqilishi lozim. Anketa quyidagi savollarni o‘z ichiga olishi mumkin: “tadqiqot mavzusi?”“Mavzuga tegishli tahlillar?”.“Tadqiqotning metodologik ishlab chiqish jarayonida qiyinchiliklarga duch keldingizmi?” “Tadqiqot jarayonida qanday

qiyinchiliklarga duch keldingiz?” “Tadqiqot faoliyati jarayonida qanday tajribaga ega bo‘ldingiz?” “Milliy kostyumni modellashtirish darslari tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirishda sizga yordam berdimi? “Siz tadqiqot ishini dizayn bo‘yicha mutaxassisni tayyorlash uchun muhim deb hisoblaysizmi?” Ilmiy tildagi tadqiqot faoliyati ikkita hodisani aks ettiruvchi so‘z (ibora) bilan ifodalanadi: “tadqiqot” va “faoliyat”. Shubhasiz, bu tushunchalar umumiylahosha tahlillarda, “faoliyat” tushunchasi umumiylahosha tahlillarda, “tadqiqot faoliyati” tushunchasi bilan ifodalanadi. Demakki “tadqiqot” sifati, olib borilgan “tadqiqot faoliyati” makammalligi uchun “faoliyat” tushunchasidan boshlanishi kerak.

Jahon amaliyotida ilmiy metodlar asosida loyihalarni ishlab chiqish oqimga aylandi. Loyiha konsepsiyalari va loyiha boshqaruvi o‘zgarishlarni boshqarish zarurati bilan bog‘liq. Loyiha boshqarish turli darajadagi menejerlarning kundalik faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Ko‘plab menejerlar yirik loyihalar bilan rasmiylashtirilgan loyihalarni boshqarish usullaridan foydalanish zarurligini shubha ostiga qo‘yadilar. Biroq, ommaviy ishlab chiqarishga qaratilgan tashkilotlarda ham loyihalarni amalga oshirilishi faoliyatning muhim qismidir. Rasmiylashtirilgan loyihalarni boshqarish usullaridan foydalanish sizga investitsion maqsadlarni yanada aniqroq aniqlash va investitsion faoliyatni optimallashtirishni rejalashtiradi, loyiha tavakkalchiliklarini yanada yaxshiroq hisobga oladi, mavjud resurslardan foydalanishni optimallashtiradi, nizolarni bartaraf etishni, tayyorlangan rejani bajarilishini nazorat qiladi, amaldagi ko‘rsatkichlarni tahlil qiladi va ish vaqtida o‘z vaqtida tuzatishlar kiritadi, kelgusida amalga oshirilayotgan loyihalar tajribasini tahlil qilish va undan foydalanish. Shunday qilib, loyihani boshqarish tizimi butun tashkilotni boshqarish tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Loyiha boshqaruvi juda yosh ilmdir, ammo aslida uning asosiy tushunchalari XIX asr oxirida shakllantirildi. Ushbu qo‘llanmada zamonaviy boshqaruv nazariyasining ilmiy g‘oyalar, ijtimoiy uslublar va asrning biznes yondashuvlaridan qanday ta’sirlanishini o‘rganasiz. Dizayn texnologiyalaridan foydalanish qadim zamonlarda ham mavjud. Ma’lum ma’noda, etti mo‘jizaning har birini amalga 7 oshiriladigan ijtimoiy loyihalardan biridir.

Xulosa

Xulosa o‘rnida aytish joizki, biz milliyligimizni yanada boyitish, buni rivojlantirish va uni ishlab chiqarish, turli-tuman yangiliklarning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Bularga, namuna sifatida juda ham ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin. Masalan, yangidan yangi zamonaviy miliy o‘zbek liboslarimizning yangidan-yangi ko‘rgazmalarning tashkil etilishi shu tariqa turizmni ham yanada yuksalishini ko‘rshimiz mumkin, zavodlarning vujudga kelishi va ishga tushirilishi, bundan tashqari yoshlarning ishsizlik o‘rinlarining kamayishiga ham sabab bo‘ladi. Bizga yanada qulaylik bo‘lish maqsadida yangiliklardan biri yanada yangi tikuv

mahsulotlarining ishlab chiqarishdagi texnologiyalarning vujudga kelishidir. Shuning uchun ham hozirgi biz yashab turgan asr “Texnika asri” hisoblanadi . Hozirgi davr yoshlari ham shu sababli ancha rivojlangan . Ta‘lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmasini shakllantirish lozim .Lekin bu sohada yuqori darajaga erishish uchun eng avvalo moddiy-texnik zamon talablariga javob berishi lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Е.Б. Кобляева, А.В. Савостицкий Основы конструирования одежды
2. Москва 1980
3. Е.А. Янчевская Аёллар уст кийимини конструкциялаш Т., 1998.
4. Амирова, О.В. Сакулина, А.Т.Труханова Конструирование мужской и женской одежды М.,2002
5. А.И. Мартынова, Е.Г.Андреева. Конструктивное моделирование одежды. М.2002
6. Yodgorova Н. I. Kiyimlarni modellashtirishda innovatsion usullardan foydalanish //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 334-338.
7. Yodgorova K. I., Shumkarova S. P. The role of adrás fabrics in modern fashion //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 364-367.
8. Yodgorova Н. I., Qayumov A. OILA-JAMIYATIMIZ MUSTAHKAM
9. TAYANCHI //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 1057-1062.
10. Shumkarova S. P., Rajapova M. N., Yodgorova K. I. PHYSICALMECHANICAL PROPERTIES OF FABRICS PRODUCED IN THE FIELD OF
11. TOURISM //Экономика и управление гостеприимством территории. – 2021. – С. 148-152.
12. Ёдгорова Г.И. «ПУТИ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ФУНКЦИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ». Экономика и социум 2-1 (2021): 409-412.
14. Egamberdiev F. et al. Theoretical study of the impact aimed at improving the efficiency of fiber cleaning //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2021. – Т. 939. – №. 1. – С. 012032.
15. Исраилова С. М., Ёдгорова Х. И. Изменение качественных показателей шелка-сырца, полученного различными способами //Молодой ученый. – 2017. – №. 20. – С. 23-25.
16. Шумкарова Ш. П., Ёдгорова Х. И., Бегманов Р. А. Влияние температуры сушки хлопка-сырца на поврежденности волокон //Наука и Мир. – 2016. – Т. 1. – №. 4. – С. 74-75.
17. Шумкарова Ш.П., Эдгорова Х.И., Бегманов Р.А. «ВЛИЯНИЕ ТЕМПЕРАТУРЫ СУШКИ ХЛОПКА-СЫРЬЯ НА ПОВРЕЖДЕНИЕ ВОЛОКНА». НАУКА И МИР (2013):
20. Ёдгорова, Хилола. "ОСОБЕННОСТИ АВТОМАТИЗАЦИИ ШВЕЙНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ И ИХ ПОДРАЗДЕЛЕНИЙ." ПЕДАГОГИ журнали 2.